



SANOAT KORXONALARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION LOYIHALARNI BOSHQARISH TIZIMINING O'ZIGA XOS MOHIYATI VA IQTISODIY AHAMIYATI

Tolibjonov Xurshidbek
Xalqaro Nordik universiteti
ORCID: 0000-0003-3303-6109
tolibjonovxurshidbek01@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot sanoat korxonalarining samaradorligini oshirishda innovatsion loyihalarni boshqarish tizimining rol va ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda innovatsion loyihalarni boshqarish tizimining o'ziga xos mohiyati zamonaviy sanoat sharoitidagi noaniqlik va yaratuvchilik muhitida faoliyat yuritish xususiyatlari orqali ochib berilgan. Har bir innovatsiya turining davomiyligi, xavf darajasi va kutilgan natijalari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalarida innovatsion loyihalarni boshqarish tizimining sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, yangi bozorlarni egallash, mahsuldorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi strategik roli isbotlangan. Ishda zamonaviy globallashuv sharoitida innovatsion loyihalarni professional boshqarish qobiliyatining sanoat korxonalari uchun hayotiy zaruriyat ekanligiga xulosa qilingan.

Kalit so'zlar: innovatsion loyihalar, loyiha boshqaruvi, sanoat korxonalari, iqtisodiy samaradorlik, texnologik innovatsiya, resurslarni boshqarish, innovatsion faoliyat, korxona samaradorligi, loyiha menejmenti, iqtisodiy o'sish, texnologik rivojlanish, strategik boshqaruv.

СПЕЦИФИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЕКТАМИ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Толибжонов Хуршидбек
Международный университет Нордик

Аннотация. Данное исследование посвящено анализу роли и значения системы управления инновационными проектами в повышении эффективности промышленных предприятий. В исследовании раскрыта сущность системы управления инновационными проектами через особенности функционирования в условиях неопределённости и творческой среды современной промышленности. Проведён сравнительный анализ продолжительности, уровня риска и ожидаемых результатов каждого вида инноваций. Результаты исследования доказали стратегическую роль системы управления инновационными проектами в обеспечении долгосрочного экономического роста посредством повышения конкурентоспособности промышленных предприятий, освоения новых рынков, увеличения производительности и снижения издержек. В работе сделан вывод о том, что в условиях современной глобализации способность профессионально управлять инновационными проектами является жизненной необходимостью для промышленных предприятий.

Ключевые слова: инновационные проекты, управление проектами, промышленные предприятия, экономическая эффективность, технологические инновации, управление ресурсами, инновационная деятельность, эффективность предприятия, проектный менеджмент, экономический рост, технологическое развитие, стратегическое управление.

THE SPECIFIC NATURE AND ECONOMIC SIGNIFICANCE OF INNOVATION PROJECT MANAGEMENT SYSTEMS IN ENHANCING THE EFFICIENCY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES

Tolibjonov Khurshidbek
International Nordic University

Abstract. *This study is devoted to analyzing the role and importance of the innovation project management system in improving the efficiency of industrial enterprises. The essence of the innovation project management system is revealed through the features of functioning under uncertainty and creative environments in modern industry. A comparative analysis of the duration, risk level, and expected outcomes of each type of innovation is presented. The research results prove the strategic role of the innovation project management system in ensuring long-term economic growth by increasing the competitiveness of industrial enterprises, entering new markets, improving productivity, and reducing costs. The study concludes that, under modern globalization, the ability to professionally manage innovation projects is a vital necessity for industrial enterprises.*

Keywords: *innovation projects, project management, industrial enterprises, economic efficiency, technological innovation, resource management, innovation activity, enterprise efficiency, project management, economic growth, technological development, strategic management.*

Kirish.

Yangi bilimga asoslangan iqtisodiyotda innovatsiyalar sanoat rivojining asosiy drayveriga aylandi. OECDning Oslo qo'llanmalariga ko'ra, innovatsiya — bu mahsulot, jarayon, marketing yoki tashkiliy usullarning yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan shaklini joriy etishidir. Innovatsiya menejmenti esa g'oyalarni yaratishdan boshlab ularni tanlash, rivojlantirish va amalda qo'llashgacha bo'lgan jarayonni tizimli tashkil qilishdir; bu tashkilotlar raqobatbardoshligi va o'sishi uchun zarur hisoblanadi. Bugungi kunda ko'plab sanoat korxonalari innovatsion loyihalarni alohida tashabbuslar sifatida olib boradi, ularni korxona boshqaruv tizimiga integratsiya etishmaydi. Natijada resurslar tarqoqligi, qo'shilma qiymatning yetarlicha yaratilmasligi, texnologik yangiliklarning bozorlarga sekin kirishi kuzatiladi.

O'zbekiston sanoatida innovatsion faoliyat kengayib bormoqda. 2010–2016 yillarda innovatsion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi korxonalar soni 289 tadan 2 374 taga yetib, 8 baravarga ortdi. 2016 yilda innovatsion mahsulotlar hajmi 10 688,2 mlrd so'mga yetib, 2008 yilga nisbatan 8 baravarga oshdi.

Bu ko'rsatkichlar o'sayotgan bo'lsada, korxonalar tomonidan innovatsion loyihalarni samarali boshqarish bo'yicha yagona tizimli yondashuv yo'qligi, standart metodologiyalarning yetishmasligi, xodimlarning kompetensiya darajasi pastligi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Hozirgi sharoitda yirik sanoat tarmoqlari (neft-gaz, kimyo, metallurgiya) raqamli texnologiyalar va Industry 4.0 elementlarini joriy etish zarurati bilan yuzma-yuz kelmoqda. Shu sababli innovatsion loyihalarni professional boshqarish tizimini yaratish nafaqat iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, balki korxonalarning raqobatbardoshligi va global integratsiyasini ta'minlaydi.

O'zbekiston zamonaviy innovatsion rivojlanish modeli sari intilayotgan davlatlardan biridir. 2017–2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi doirasida innovatsion rivojlanish alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. 2017 yil 29 noyabrda Prezidentning UP-5264-sonli farmoni bilan Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etilib, respublikaning ilmiy va texnologik salohiyatini oshirish vazifasi yuklatildi

2010-yillardan beri hukumat tomonidan o'tkazilayotgan yarmarkalar natijasida 2008–2016 yillar oralig'ida 2 960 dan ortiq innovatsion shartnomalar imzolaniib, 85 mlrd so'mdan

ziyod investitsiya jalb qilindi. 2018 yil "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi ham innovatsion siyosatning ustuvorligini tasdiqladi.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Innovatsion rivojlanish strategiyasi va uning 2024–2025 yillar uchun mo'ljallangan "yo'l xaritasi" innovatsion infratuzilmani kengaytirish, startaplarni qo'llab-quvvatlash, hududlarda kichik biznesning innovatsion faolligini oshirish, yangi mahsulot va texnologiyalar yaratish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash hamda innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilaydi. Ushbu qarorda innovatsiyalarning yakuniy iste'molchigacha yetib borishini ta'minlaydigan tizim yaratish hamda yaratilgan kapitalni "tubdan yangilovchi" innovatsiyalarga yo'naltirish nazarda tutiladi.

Mavzu tanlanishi bejiz emas - O'zbekistonning milliy strategiyasi sanoat tarmoqlarini yuqori texnologiyalar, raqamli yechimlar va innovatsion boshqaruv vositalari bilan modernizatsiya qilishni ko'zda tutadi. Korxonalarda innovatsion loyihalarni boshqarish tizimini joriy etish nafaqat tashkilot ichida samaradorlikni oshiradi, balki davlatning eksport salohiyatini kengaytiradi, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytiradi va bandlikni oshiradi. Ilmiy jihatdan tadqiqot innovatsion boshqaruv konsepsiyalarini (UNE 166000 standartlari, Oslo qo'llanmasi va Hamel modelini) milliy sanoat sharoitiga moslashtirib, ularning samaradorligini baholash imkonini beradi.

Amaliy tomondan esa u yirik sanoat korxonalari, startaplar va kichik biznes subyektlari uchun innovatsion loyihalar portfelini shakllantirish, resurslarni optimallashtirish va xavflarni kamaytirishga qaratilgan tavsiyalarni beradi. Innovatsion boshqaruv tizimlarini joriy etish uchun hukumat tomonidan yaratilayotgan muhit juda muhim. 2024 yil 13 martdagi Vazirlar Mahkamasining 128-sonli qarori bilan Innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha 2024–2025 yillar uchun "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. U quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: startap tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va yirik ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish; innovatsion faol tashkilotlar ulushini oshirish; kichik biznesning innovatsion faolligi orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash; mahsulot va texnologiyalar yaratishning to'liq siklini (g'oyadan iste'molchigacha) tashkil qilish; yaratilgan kapitalni yangilovchi innovatsiyalarga yo'naltirish; hamda ta'lim tizimida kreativlik va innovatsion tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish.

Qarorda vazirlik va idoralar rahbarlariga "yo'l xaritasi"dagi vazifalarni bajarish bo'yicha shaxsiy mas'uliyat yuklatilgan va bu jarayonni nazorat qilish Innovatsiyalar, oliy ta'lim va ilmfan vazirligiga topshirilgan. Bunday institutsional mexanizmlar korxonalarga ilmiy tadqiqotlar va eksperimental ishlanmalarni olib borishda davlat grantlaridan foydalanish, xalqaro ekspertlarni jalb qilish, klasterlar va yoshlar texnoparklarida prototiplashni yo'lga qo'yish imkonini beradi. Bundan tashqari, "yo'l xaritasi"da yuqori darajadagi innovatsiyalarga investitsiya kiritish, xalqaro seminarlar va formlar tashkil qilish, "FabLab"lar orqali yoshlarni innovatsiyalarga jalb qilish kabi tadbirlar nazarda tutilgan.

Ushbu islohotlar industrial korxonalarni innovatsion ekotizimga faol qo'shish uchun qulay sharoit yaratadi. Mavjud resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va eksportbop mahsulotlar yaratish orqali davlatning iqtisodiy o'sishini tezlashtirish mumkin. Shunday qilib, innovatsion loyihalarni boshqarish tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar davlat siyosati va sanoat amaliyoti uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi.

Tadqiqotchilar Wang va Shao (2024) o'z ilmiy ishlarida Xitoy ishlab chiqarish korxonalarining 2011–2021 yillardagi ma'lumotlari asosida raqamli transformatsiya (big data, IIoT) ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli oshirishi, ayniqsa nodavlat va yuqori texnologiyali korxonalarda ta'sir kuchliroq ekanini ko'rsatadi. Mualliflar institutsiyaviy

“threshold effect”ni ham aniqlaydi: rasmiy/norasmiy institutlar ma’lum darajadan oshganda transformatsiya ta’siri keskin kuchayadi.

Vrchota va Řehoř 2019 yillarda olib brogan uzoq yillik tadqiqotlarida Chexiya ishlab chiqarish korxonalarida so’rovnoma asosida o’tkazilgan tadqiqot PM (project management) yondashuvi joriy qilingan korxonalarda innovatsion investitsiyalarni rejalashtirish va cheklov omillarini boshqarish yaxshiroq yo’lga qo’yilishini ko’rsatadi. Bu PM tizimi innovatsion loyihalar ijrosini intizomlashtirib, samaradorlikka zamin yaratishini anglatadi.

Fazlloğlu, Dalgıç va Yereli (2019) tadqiqotlarida innovatsiya va mehnat unumdorligi Turkiya ishlab chiqarish firmalarida (CIS ma’lumotlari) endogen tanlovni inobatga olgan usulda o’rganilganida, innovatsiya qiluvchi firmalar produktivligi oshishi aniqlanadi; ammo ta’sir firmalar kesimida geterogen: ayrim tiplardagi innovatsiyalar (masalan, mahsulot/protsess) turlicha natija beradi. Bu innovatsion loyihalarni tanlash va portfelni muvozanatlashtirishning iqtisodiy ahamiyatini asoslaydi.

Tadqiqotchilar Kester, Griffin, Hultink va Lauche (2011) “Portfel qarorlarini qabul qilish jarayonlari” nomli ilmiy ishlarida Portfel bo’yicha qarorlar qanday jarayonlar orqali shakllanishini tahlil qiladi va dalilga tayanuvchi, tartibga solingan hamkorlik va aniq mezonlar qo’llanishi portfel sifatini hamda yangi mahsulot ishlash ko’rsatkichlarini yaxshilashini ko’rsatishadi. Bu, sanoat korxonalarida innovatsion portfel boshqaruvi jarayoniy intizomi iqtisodiy natijalarni mustahkamlashini asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot dizayni sifatida integratsiyalashgan adabiyotlar sharhi va ikkilamchi ma’lumotlar tahlili qo’llanildi. Avvalo 2010–2025 yillar oralig’ida Scopus, Web of Science va nufuzli soha jurnallarida e’lon qilingan ilmiy ishlar, shuningdek Jahon banki, OECD, Eurostat, EBRD va milliy statistika hisobotlaridan olingan ma’lumotlar tanlab olindi. Tanlash mezonlari: (1) sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni boshqarish amaliyoti, (2) samaradorlik ko’rsatkichlari (TFP, mehnat unumdorligi, tannarx, ROI va rentabellik), (3) boshqaruv tizimi (PPM yetukligi, PMO mavjudligi, risk va resurs boshqaruvi) bo’yicha aniq natijalar berishi. Tahlil bosqichida mavzuga oid ilmiy ishlardan tematik kontent-tahlil va qiyosiy (benchmark) tahlil usullari bilan xulosalar sintez qilindi: mualliflar keltirgan baholash yondashuvlari, PPM jarayonlari (tanlash–prioritetlash–resurslash), raqamli texnologiyalar (IIoT, analitika) va ochiq innovatsiya elementlarining samaradorlikka ta’siri kesimlarda solishtirildi. Ikkilamchi statistik ma’lumotlarda soddalashtirilgan deskriptiv tahlil va sezgirlik tekshiruvlari (o’ta qiymatlar/qarorlar chiqarib tashlangan holda) bajarildi. Xorijiy tajribalar (YEI, AQSh, Turkiya, Xitoy) sanoat tarmoqlari bo’yicha moslashtirilib, O’zbekiston sharoitiga transfer qilinishi nuqtayi nazaridan amaliy saboqlar ajratildi. Cheklovlar: ikkilamchi ma’lumotlarda ko’rsatkichlar ta’rifi va o’lchovlaridagi farqlar hamda tarmoqlararo geterogenlik shu bois natijalar ehtiyotkorlik bilan, kontekstga mos talqin qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Sanoat korxonalarida innovatsion loyihalarni tizimli boshqarish joriy etilganda samaradorlik ko’rsatkichlari izchil yaxshilanadi. Amaliyotda ko’pincha shuni ko’ramizki, aniq mezonlarga tayangan portfel boshqaruvi “kam qiymatli” tashabbuslarni erta bosqichda to’xtatadi, resurslarni yuqori ta’sirga ega loyihalarga yo’naltiradi va natijada loyiha muddatidan og’ish hamda byudjetdan og’ish ko’lami qisqaradi. Odatdagi diapazonlarda on-time ulushi 10–15 foiz bandga ortishi, byudjet intizomi 5–10 foiz bandga yaxshilanishi, time-to-market 15–25% ga qisqarishi kuzatiladi. Bu sur’atlar ayniqsa ishlab chiqarish oqimlarini raqamlashtirish, real vaqt kuzatuv va tezkor tahlil bilan qo’llab-quvvatlanganda barqarorroq bo’ladi.

Zamonaviy sanoat korxonalarida innovatsion faoliyat turli yo’nalishlarda amalga oshiriladi va har bir yo’nalish o’ziga xos xususiyatlarga ega. Innovatsion loyihalarning samarali boshqarilishi uchun avvalo ularning turlarini va har birining mohiyatini aniq belgilash zarur.

Korxonalarda amalga oshiriladigan innovatsion loyihalar asosan uch asosiy guruhga bo'linadi: texnologik, mahsulot va jarayon innovatsiyalari.

Har bir innovatsiya turi o'zining maqsadi, amalga oshirish muddati, xavf darajasi va kutilayotgan natijalari bilan farqlanadi. Bu farqlarni hisobga olish loyiha muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi jadvalda innovatsion loyihalarining asosiy turlari va ularning xususiyatlari taqqoslanadi.

1-jadval

Innovatsion loyihalar turlari va xususiyatlari

Loyiha turi	Maqsad	Davomiyligi	Xavf darajasi	Kutilgan natija
Texnologik innovatsiya	Yangi texnologiya joriy etish	1-3 yil	Yuqori	Mahsuldorlik oshishi
Mahsulot innovatsiyasi	Yangi mahsulot yaratish	6 oy - 2 yil	O'rta	Bozor ulushi kengayishi
Jarayon innovatsiyasi	Ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirish	3-12 oy	Past	Xarajatlar kamayishi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, texnologik innovatsiyalar eng uzoq muddatli va yuqori xavfli loyihalar hisoblanadi, lekin ular korxonaning mahsuldorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatini beradi. Mahsulot innovatsiyalari o'rta muddatli va o'rta xavfli bo'lib, asosan yangi bozorlarni egallash yoki mavjud bozordagi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan.

Jarayon innovatsiyalari esa eng kam xavfli va qisqa muddatli loyihalar bo'lib, mavjud ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish orqali xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan. Korxonalar odatda muvozanatli portfel yaratish uchun barcha uch turdagi innovatsion loyihalarni parallel ravishda amalga oshirishga harakat qiladi. Bu yondashuv xavflarni taqsimlash va turli muddatlarda doimiy natijalar olishga imkon beradi.

Innovatsion loyihalarni samarali boshqarish uchun aniq belgilangan bosqichlar ketma-ketligini rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Har bir bosqich o'ziga xos vazifalari, mas'ullari va bajarilishi zarur bo'lgan ishlarni o'z ichiga oladi. Loyiha boshqaruvi metodologiyasi bo'yicha, har qanday innovatsion loyiha besh asosiy bosqichdan iborat bo'lib, har birining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi keyingi bosqichlarning sifatli bajarilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Loyiha bosqichlarining to'g'ri tashkil etilishi resurslardan samarali foydalanish, vaqtni tejash va kutilgan natijalarni olish uchun zarurdir. Har bir bosqichda aniq mas'uliyat taqsimoti va nazorat mexanizmlarini joriy etish loyiha muvaffaqiyatining asosiy kalitidir. Quyidagi jadvalda innovatsion loyihalarni boshqarishning asosiy bosqichlari va ularning xususiyatlari keltirilgan.

2-jadval

Innovatsion loyihalarni boshqarish bosqichlari

Bosqich	Vazifalari	Davomiyligi	Javobgar bo'lim	Asosiy ko'rsatkichlar
Tayyorlash	G'oya yaratish, tadqiqot	2-4 hafta	R&D bo'limi	Texnik-iqtisodiy asoslash
Rejalashtirish	Loyiha hujjatlarini tayyorlash	4-6 hafta	Loyiha jamoasi	Byudjet, jadval
Amalga oshirish	To'g'ridan-to'g'ri ishlarni bajarish	Loyihaga bog'liq	Barcha bo'limlar	Bajarilish foizi
Monitoring	Nazorat va boshqarish	Butun davom	Loyiha menejeri	KPI ko'rsatkichlari
Yakunlash	Natijalarni baholash	2-4 hafta	Yuqori rahbariyat	ROI, payback period

Jadvalda keltirilgan bosqichlarning har biri innovatsion loyiha hayotiy tsiklining ajralmas qismidir. Tayyorlash va rejalashtirish bosqichlari loyihaning asosini tashkil etadi va bu yerda qilingan xatolar keyinchalik tuzatilishi qiyin bo'ladi. Amalga oshirish bosqichi eng uzoq davom etadi va barcha tashkiliy bo'linmalarning faol ishtirokini talab qiladi.

Monitoring bosqichi loyihaning butun davomiyligida amalga oshirilib, loyiha menejerining doimiy nazoratini talab qiladi. Bu bosqichda o'z vaqtida amalga oshirilgan tuzatishlar loyihani muvaffaqiyatsizlikdan saqlaydi. Yakunlash bosqichi loyihaning iqtisodiy samaradorligini baholash va keyingi loyihalar uchun tajriba to'plash imkonini beradi. Ushbu bosqichma-bosqich yondashuvni qo'llash korxonalarga innovatsion loyihalarni professional darajada boshqarish va yuqori natijalar olish imkoniyatini yaratadi.

Protsess innovatsiyalari (avtomatlashtirish, oqimlarni qayta loyihalash, sifat nazoratini onlayn qilish) bevosita xarajatlar tuzilmasiga ta'sir qilib, bir birlik tannarxni bosqichma-bosqich tushiradi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, jarayonni optimallashtirish orqali ortiqcha harakatlar, kutishlar va qayta ishlash ulushi keskin kamayadi, resultativ natijada OEE 5–10 foiz bandga ko'tarilishi, nuqsonlar darajasi 20–30% atrofida qisqarishi, bekor turish vaqti esa sezilarli darajada kamayishi mumkin. Bu esa mahsulot sifati va yetkazib berish barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek mijozlar bilan shartnomaviy majburiyatlarga amal qilish ehtimolini oshiradi.

Mahsulot innovatsiyalari korxonaning daromad oqimlarini diversifikatsiya qiladi, bozor segmentlarini kengaytiradi va o'rtacha rentabellik ko'rsatkichlarini yaxshilaydi. Bunda portfelning "balans" tamoyili muhim: qisqa muddatda tez pul oqimi keltiradigan, past xavfli takomillashtirishlar uzoq muddatli, lekin yuqori rentabellik potensialiga ega mahsulot loyihalarini "subsidiyalab" turadi. Shu muvozanat tufayli umumiy rentabellik tebranishi kamayadi, kutilmagan bozor tebranishlariga nisbatan barqarorlik ortadi.

Risklarni boshqarishning tizimli qo'llanilishi risk reyestri, javob choralari, ssenariy rejalashtirish ta'minot zanjiridagi uzilishlar, narx tebranishlari yoki texnologik kechikishlarning zarbasini yumshatadi. Amaliyotda erta ogohlantirish indikatorlari ishlaganida jadvaldagi kechikishlar ehtimoli va miqyosi sezilarli kamayadi, resurslar esa portfel bo'ylab qayta taqsimlanib, umumiy yo'qotishlar minimal darajada saqlab qolinadi. Bu yondashuv, ayniqsa kapital talabchan tarmoqlarda, loyiha qiymatini himoya qiladi va ROIning pasayib ketishini cheklaydi.

Innovatsion loyihalarni boshqarish tizimining o'ziga xos mohiyati - tanlov va ijro intizomini kuchaytirish, ma'lumotga tayangan boshqaruvni yo'lga qo'yish va resurslarni qiymatga qarab yo'naltirishdir. Odatda kuzatiladigan natijalar: muddat va byudjet intizomida ikki raqamli yaxshilanishlar, keskin qisqarish, sifat ko'rsatkichlarining barqaror ko'tarilishi va tannarxning pasayishi. Bu uyg'unlikda korxona rentabelligi va bozor moslashuvchanligi oshadi; uzoq muddatda esa innovatsion portfelning balans tamoyili tufayli qiymat yaratish barqaror yo'lga qo'yiladi.

Xulosa va takliflar.

Innovatsion loyihalarni boshqarish tizimi sanoat korxonalarida yangi texnologiyalar, mahsulotlar va jarayonlarni strategik boshqarish metodologiyasi bo'lib, noaniqlik sharoitida samarali ishlash qobiliyatiga ega. Bu tizimning o'ziga xos mohiyati an'anaviy loyiha menejmentidan farqli ravishda ijodkorlik va tizimlilikni uyg'unlashtirishda, murakkab texnologik yechimlarni ishlab chiqarishda, mavjud ishlab chiqarish jarayonlari bilan integratsiyalashtirishda hamda laboratoriya sinovlaridan sanoat miqyosigacha bo'lgan barcha bosqichlarni samarali rejalashtirish va amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Shuningdek, tizim doimiy ta'lim va rivojlanish jarayonlarini o'z ichiga olgan holda, tez o'zgaruvchan bozor talablariga moslashish imkonini yaratadi.

Iqtisodiy jihatdan innovatsion loyihalar boshqaruv tizimi korxonalar uchun ko'p qirrali va uzoq muddatli foyda keltiradi. Bu tizim raqobatbardoshlikni oshirish, yuqori qo'shilgan

qiymat yaratish, daromadlilikni oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mehnat unumdorligini yaxshilash orqali korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Zamonaviy sanoat korxonalari uchun bunday tizimni joriy etish nafaqat raqobat ustunligini ta'minlash, balki barqaror rivojlanish va uzoq muddatli muvaffaqiyatning asosiy sharti hisoblanadi, chunki u korxonalarga innovatsiyalarni tijorat muvaffaqiyatiga aylantirish va doimiy o'sish traektoriyasini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Farmon (2022) 2022 — 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2022 yildagi PF-165-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6102462>

Fazhloğlu, B., Dalgıç, B., & Yereli, A. B. (2019). The effect of innovation on productivity: Evidence from Turkish manufacturing firms. *Industry and Innovation*, 26(4), 439–460. <https://doi.org/10.1080/13662716.2018.1440196>

Kester, L., et al. (2011). Exploring portfolio decision-making processes. *Journal of Product Innovation Management*, 28(5), 641–661. <https://doi.org/10.1111/j.1540-5885.2011.00832.x>

Martinsuo, M., Vuorinen, L., & Killen, C. P. (2024). Project portfolio formation as an organizational routine: Patterns of actions in implementing innovation strategy. *International Journal of Project Management*, 42(6), 102592. <https://doi.org/10.1016/j.ijproman.2024.102592>

Saipnazarov, Sherbek. (2024). Korxonalarni boshqarish samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish mexanizmlari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*. 1. 10.55439/GED/vol1_iss1/a790.

Wang, D., & Shao, X. (2024). Research on the impact of digital transformation on the production efficiency of manufacturing enterprises: Institution-based analysis of the threshold effect. *International Review of Economics & Finance*, 91, 883–897. <https://doi.org/10.1016/j.iref.2024.01.046>

Xolmirzayev U.A., Hakimova G.A. (2024) Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni boshqarish tizimi // Экономика и соцузм. №5-1 (120). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sanoat-korxonalarida-innovatsion-faoliyatni-boshqarish-tizimi>.